

MAKTABGACHA TA'LIMDA TASVIRIY FAOLIYATNING AHAMIYATI

Axmedova Nazokat Erkinovna

Xalqaro Nordik universiteti Psixologiya va maktabgacha ta'lim kafedrasи o'qituvchisi

n.axmedova@nordicuniversity.org

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta'limga tashkilotlarida olib boriladigan tasviriy faoliyat mashg'ulotlarining bolalarning matab ta'limiga tayyorgarlik jarayonidagi ahamiyati tahlil qilingan. Tasviriy faoliyat bolalarning estetik tarbiyasini rivojlantirish, ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirish va jamoaviy ishda hamkorlik hissini kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu faoliyat orqali bolalar atrof-muhitni idrok etish, ranglarni ajratish va badiiy ijodkorlikni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'llishadi. Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda iroda, maqsadga intilish va jamoaviy ish ko'nikmalari tarbiyalanadi, bu esa ularni matab ta'limiga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Tasviriy faoliyat, estetik tarbiya, ijodkorlik, rivojlanish, o'yin usuli.

Аннотация: В статье анализируется значение занятий изобразительной деятельностью в учреждениях дошкольного образования для подготовки детей к школьному обучению. Изобразительная деятельность играет важную роль в развитии эстетического воспитания детей, формировании творческих навыков и укреплении чувства сотрудничества в коллективной работе. Через эту деятельность дети получают возможность воспринимать окружающий мир, различать цвета и развивать художественное творчество. В процессе изобразительной деятельности у детей воспитываются воля, целеустремленность и навыки коллективной работы, что имеет важное значение для их подготовки к школьному обучению.

Ключевые слова: Изобразительная деятельность, эстетическое воспитание, творчество, развитие, игровой метод.

Annotation: The article analyzes the importance of visual arts activities in preschool institutions for preparing children for school education. Visual arts play a significant role in developing children's aesthetic upbringing, forming creative skills, and strengthening the sense of collaboration in group work. Through these activities, children gain the ability to perceive the surrounding environment, distinguish colors, and develop artistic creativity. During the process of visual arts, children cultivate willpower, goal orientation, and teamwork skills, which are crucial

for their preparation for school education.

Keywords: Visual arts, aesthetic upbringing, creativity, development, play method.

KIRISH

Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta`limiga tayyorlashda tevarak atrofni idrok etish bilan bog'liq yo`nalishdagi rivojlanishida ularni mantiqiy fikrlashga o`rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada tasviriy faoliyat mashg'ulotlari orqali rivojlantirish muhim rol o'yndaydi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida tasviriy faoliyat bolalar bilan olib boriladigan butun ta'lim-tarbiyaviy ishning bir qismi hisoblanadi. Shu sababli u xilma-xil faoliyat va mashg'ulotlar turlari bilan bog'liq bo'lishi muhimdir. Bunga bola tasviriy faoliyat xarakterining o'zi imkoniyat beradi. Rasm chizish, plastilin, qirqib yopishtirish ishlarida bolalar o'zlarining tevarak-atrofidagi narsa hodisalar, qo'shiqlardan olgan taassurotini aks ettiradilar. Rasm, loy, qirqib yopishtirish va qurish - yasash ishlarining boshqa mashg'ulotlari va faoliyat turlari bilan bog'liqligi bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishning samarasini, bolalarning kasb-hunarga qiziqishini oshiradi.



Tasviriy faoliyatni turli hil o'yinlar bilan olib borish mumkin. O'yin bola hayotida katta o'rinni egallaydi. Mashg'ulotlarda o'yinli holatlarni tashkil etish yaxshi natijalar beradi. Bolalar bunday mashg'ulotlarda erkin harakat qiladilar. O'yin usuli barcha guruhlarda qo'llaniladi. Bu usul yordamida yengil, quvnoq muhit his ettirish mumkin. Bolalarning mashg'ulotga qiziqishi ortadi, tasviriy faoliyatida ko'nikma va malakalarga ega bo'ladi. O'yin shaklida o'tadigan mashg'ulot bolalar e'tiborini qamrab oladi, ularning estetik, axloqiy jihatdan tarbiyalanishlariga yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Rasm, loy, qirqib yopishtirish o'yinchoq orqali o'yin bilan bog'langan bo'ladi. O'yinchoqni chizish, yasash, qirqib-yopishtirish barcha yosh guruh bolalarida zavq uyg'otadi, o'yinchoqlarni tasvirlash bo'yicha mashg'ulotlar yil davomida bir necha bor takrorlash mumkin., lekin ularning shakli turlicha bo'lishi zarur. Bolaning hayotida mazmunli-rolli o'yinlar muhim o'rinni egallaydi. Shuning uchun tasviriy faoliyatning o'yin bilan bog'lanishi bolalar

tarbiyasida katta ahamiyatga ega. Mazmunli-rolli o'yinlarni mashg'ulot mazmuniga kiritish bolaning tasvirlash faoliyatga qiziqishini, bajarayotgan ishining sifatini yaxshilaydi.

Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda irodaning sifatlari -boshtagani ishini oxiriga yetkazish, oldiga maqsad qo'yib, o'shani bajarishga tomon intilish, qiyinchiliklarni yengish, o'rtoqlariga yordamlashish kabi xususiyatlar tarbiyalanadi. Jamoa ishini yaratish jarayonida bolalarda bir-biriga yordam, kelishib ishlash kabi sifatlar tarbiyalanadi. Bolalarda, ishni baholash jarayonida, bolalarni o'rtoqlarining ishiga nisbatan real munosabatda bo'lismi, to'g'ri baholash, o'z ishidan va o'rtoqlarining ishidan xursand bo`lish kabi axloqiy sifatlar tarbiyalanadi. Tasviriy faoliyat bu bolalarni o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini bajarishda tinmay mehnat qilishga undovchi faoliyat hisoblanadi. Bolalarda mehnat ko'nikmalarini o'stirish, tarbiyalash kerak, faqat navbatchilik orqali ba'zi bolalarda emas, balki, har bir bolada. Tasviriy faoliyat bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda tarbiyaviy jarayon sifatida keng qamrovli ahamiyatga ega. Bunda quyidagi maqsadlar amalga oshiriladi:

- Atrof-muhitni tushunish va idrok etish qobiliyatlarini rivojlantirish.
- Estetik hissiyotlarni shakllantirish.
- Jamoaviy ishlarda hamkorlik va mas'uliyat hissini kuchaytirish.

Tasviriy faoliyat bolalarga estetik tarbiya berishning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir predmetning katta-kichikligini, rangini, shaklini, fazoda joylashishini ajratish, bu estetik sezgining bo'laklari hisoblanadi. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi - bu rangi, ritmi, proportsiyani chuqurroq sezish bilan bog'liqidir. Bolalar rangni, shaklni, uning xilma-xilligini sezsa yoki his etsa, u shunchalik ranglar aralashmasining xilma-xilligidan zavq oladi, bahramand bo'ladi. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi, ularda predmetga va uning ba'zi sifatlariga nisbatan estetik baho berishga o'rganadilar. Estetik tarbiya bolalarning did va badiiy tushunchalarini shakllantirishning asosiy qismidir. Tasviriy faoliyat yordamida bolalar:

1. Ranglarni ajratish va ularning uyg'unligini baholash qobiliyatini rivojlantiradi.
2. Tabiat manzaralarini kuzatish orqali atrof-muhitga nisbatan hurmatni oshiradi.

Shu bilan birga, tasviriy faoliyat bolalarda badiiy ijodkorlikni rivojlantirib, ularga mustaqil obrazlar yaratish ko'nikmasini beradi.

Ularda tasviriy san'at asarlarini tushunishga, ularga nisbatan his-tuyg'uni, munosabatni tarbiyalaydi. Tasviriy faoliyat bolalarda badiiy ijodni o'stirishda muhim rol egallaydi. Bolaning badiiy ijodiy o'sishi bu obrazli fikr yuritish, estetik idrok etishni va obraz yaratishda zarur bo'lgan

malaka, ko'nikmalami egallash hisoblanadi. Masalan, tabiatga yoki istirohat bog'iga sayr, kuz faslida sayohat uyushtirish. Tarbiyachi bolalarni predmet yoki tevarak-atrofni kuzatishda paydo bo'lувchi estetik his-tuyg'u orqali, tevarak-atrofga, kishilar mehnatiga to'g'ri baho berish, vatanga nisbatan muhabbat kabi sifatlarni tarbiyalash mumkin. Bolalami o'z ishini yana ham chiroyli va yaxshi bajarish, boshqalarga yoqadigan, ularni ko'rganda quvonadigan qilib yaratish bu badiiy, axloqiy tarbiyalashning asosiy vazifasi hisoblanadi. Tasviriy faoliyat bolalarni har tomonlama rivojlantirishda muhim vosita bo'lib, ularga mакtab ta'limiga tayyorlanishda katta yordam beradi. Bu faoliyat nafaqt ijodiy imkoniyatlarni oshirish, balki tarbiyaviy jarayonlarni yanada boyitishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1 Shodmonova Sh. Maktabgacha ta`lim pedagogikasi. – T.: TDPU, 2004.
- 2 A.P.Sulaymonov, G.A.Amirova, B.R.Djurayeva. Tasviriy faoliyat. T.2016.
- 3 Axmedova, N. E., & Nuriddinova, M. M. Q. (2023). BOLALARNI IJODIY QOBILYATINI RIVOJLANTIRISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(3), 755-760.
- 4 Akhmedova, N. E. (2023). DEVELOPING ARTISTIC AND AESTHETIC COMPETENCE IN THE EDUCATION OF FUTURE TEACHERS OF FINE ARTS IN TRADITIONAL AND FOLK ART. *Science and innovation*, 2(Special Issue 14), 170-173.